

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-1/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>
<i>Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Эичанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1/3 (97), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 149 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Alieva N. Conceptual foundations for the study of phraseological units and collocations in english, russian and uzbek	5
Aytmuratov A.M. Raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi terminlarning til ilmi sohasidagi ahamiyati	7
Bekmurodova F.N. Translation issues of linguacultural concepts in novels	11
Haydarov A.A., Mansurova D. So'zlashuv va badiiy nutqda intonatsiyaning roli	14
Haydarov A.A., Mo'minova R. Antroponimlarni tahliliy o'rganish	17
Haydarov A.A., Ro'ziyeva N. Konnotativ ma'noning nutq birliklarida ifodalanishi	19
Haydarov A.A., Sattorova Sh. Modallikning ifoda vositalari	22
Husaynova M.M. O'zbek milliy latifalari matning leksik-stilistik xususiyatlari	24
Ishqobilova H. The concept of value in linguistic culture and its brief analysis within the concepts of "hospitality and solidarity"	26
Ismoilova O.I. HNP ₂ komponenti o'rinda kelgan ikki valentli elementlar ifodalagan sintaksemalar	29
Jurayeva N.G. Mumtoz she'riyatning nazm tuzilishiga bir nazar	33
Khakimova M.F. The literary translation of the passage from A. Mukhtar's novel "Platan"	37
Kutlimuratova G.K. Konsepsiya maydon qurilishi haqida	40
Makhammadov B. Ingliz tilidagi AOTMI terminlarining genetik xususiyatlari	42
Mahmudjonova M.X. Sintaktik sathda valentlik nazariyasi haqida ayrim mulohazalar	47
Mavlonova M.M. Pedagogical strategies of improving english in andragogy education	50
Minniqulov I.U. Tilshunoslikda aksiologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari	53
Mirzazoda D.M. O'zbek tilida suyish funksional-semantik ma'nosining gender xususiyatlari	56
Nurjanov O. O'zbek tili etnografik leksikasining dialektal xususiyatlarini o'rganish muammosi	60
Qodirova M., Soqiyeva Sh. Pronominal murojaat shakllarida implikaturaning roli	62
Qulniyozova Sh.N., Uralova O.P. O'zbek va ingliz tillarida kosmonimlar hosil bo'lishining linguokulturologik xususiyatlari	65
Sabirova N.E. Xorazm dostonchiligi rivojida Ustoz-shogirdlik an'analari	67
Saparova Q.O., Irgasheva U.A. Xitoy tiliga oid til materiallarini baholash xususiyatlari haqida	71
Sapayeva F.N. Xorijiy tillarni (ingliz tili) o'zlashtirishda o'yinlar orqali og'zaki nutqni rivojlantirish	74
Shokarimova K.A. Poetik matnlarda vizualizatsiya darajalari	77
Sobirov M.M. About learner's dictionaries of uzbek language	79
Turdimurodov S. Evfemik graduonimiyada aynanlik va farqlilik tamoyili	82
Ubaydullayeva Z.H. Hissiyot tushunchasi va hissiyotlar lingvistikasi	85
Xusainova Sh.E. Tibbiyot sohasi misolida termin va tushuncha munosabati	89
Абдувалиев М.А. Ўзбек тилида тўсиқсизлик концептини воқелантирувчи лексик birliklar	92
Азимов У.С. Одний фольклоризм: таржима ва аслият	94
Бегимов О.Т. Сарик сўзининг апеллятив ва ономастик сатҳда қўлланиш хусусиятлари	97
Вахабова М.Т. Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины	101
Есемуратова У.Х. «Давлетярбек» достони ва достондаги образлар	104
Казаков И.Р. Қорақалпоқ тилшунослигида лингвокультурологик талқинлар	106
Мадалов Н.Э. Инглиз ва ўзбек тилларидаги табиат ҳодисаси билан боғлиқ мақолларда синоним ва антоним муносабатларини ифодаланиши	110
Мамурова М.М. "Ғазнавийлар" романида халқ оғзаки ижоди намуналарининг ўрни ва туш мотиви	114
Мақсетова З.Ш., Джолдасова Г.Б. Инсон интеллектуал қобилиятин ифодаловчи фразеологик birliklar таҳлили	117
Минаварова Г.М. Заимствование – как процесс развития языка	120

- antroponimlarga oid manbaalar yaratish;
- antroponimlarga oid lug'atlarni tuzish;
- antroponimik leksikografiyani biror bir asarlardagi qahramonlar nomi orqali yaratish;
- qiyosiy solishtirish orqali har ikkala tilda antroponimlarning statistik tahlilini olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khamidovna, N. N. (2022). The importance of denotation and connotation. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 119-120
2. Anvar Haydarov. (2020). Methodological features of graphic tools. *Middle European Scientific Bulletin*, 5.
3. Nazarova N.A. (2022). Semantic properties of anthroponyms. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>
4. Ahrorovna, N. N., & Shaxribonu, A. (2022). Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 116–118.
5. Nazarova, N. (2022). Обучение молодых учащихся через интерактивные игры. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 7(7).
6. Nazarova, N., & Yoqubovna, S. M. (2022). Lingvistikada lacuna muammosi. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 113-115.
7. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Akhmedova Marjona. (2022). Effective Language Learning. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 104–107.
8. Ahrorovna, N. N. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 90-96.
9. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 110-112.
10. Ahrorovna, N. N. ., & Marjona, M. . (2021). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 62–68.
11. Ahrorovna, N. N., & Shaxribonu, A. (2022). Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 116–118.

UO'K 81'22: 81-112.2: 81-115: 81'371

KONNOTATIV MA'NONING NUTQ BIRLIKLARIDA IFODALANISHI

A.A.Haydarov, prof., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

N.Ro'ziyeva, magistr, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Tilshunoslikda konnotativ ma'noni qiyosiy planda o'rganish denotativ va konnotativ ma'nolarni chegaralash, bu ma'nolarning nutqda reallashishida til vositalarining o'rni, qiymatini belgilash kabi qator masalalar hozirgi davrda ilmiy ishlarning obykti bo'lib qoldi. Konnotativ ma'no, uning ingerent va adgerent ko'rinishlarining nutqiy jarayonda ro'yobga chiqishi turlicha xarakter va xususiyatga ega.

Kalit so'zlar: denotativ, konnotativ, nominativ, ingerent, adgerent, ma'no ottenkasi, differentatsiyalash, kontekstual ma'no, paradigmatic qator, dominanta, stilistik bo'yoq.

Аннотация. Сопоставительное изучение коннотативного значения в языкознании, разграничение денотативного и коннотативного значений, определение места и значения языковых средств в реализации этих значений в речи стали предметом научной работы в современный период. Реализация коннотативного значения, присущих ему и присоединенных форм в речевом процессе носит различный характер и особенности.

Ключевые слова: денотативный, коннотативный, номинативный, присущий, адепт, смысловой оттенок, дифференциация, контекстуальное значение, парадигматический ряд, доминанта, стилистический цвет.

Abstract. Comparative study of connotative meaning in linguistics, delimitation of denotative and connotative meanings, determining the place and value of language tools in the realization of these meanings in speech has become the object of scientific work in the current period. The realization of connotative meaning, its inherent and adherent forms in the speech process has different character and characteristics.

Key words: denotative, connotative, nominative, inherent, adherent, meaning shade, differentiation, contextual meaning, paradigmatic series, dominant, stylistic color.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatdan nominativ va ekspressiv funksiyalarni bajara oladigan vosita ekanligi tilning ichki dualizmi-uning, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning formasi, ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil sistema ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir.[1, 90-91] Agar tilning nominativ funksiyasi uning tafakkurning formasi tushunchalarni qolipga soluvchi vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv funksiyasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlaridagina ochilishi mumkinligi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, barcha tilshunoslar so'zda ikki xil ma'no: atamalik, nomlash (denotativ) va qo'shimcha emotsional-ekspressiv ma'no mavjudligini qayd etadilar.[4,46] So'zning qo'shimcha ma'nosi tilshunoslikda turli nomlar bilan, chunonchi, stilistik bo'yoq[6,45] ekspressiv ma'no ottenkasi[8,34], qo'shimcha ma'no (созначение) kabi terminlar bilan nomlanadi. Biz so'zning bunday ikki xil ma'no va funksiyasiga nisbatan denotatsiya va konnotatsiya terminlarini qo'llaymiz.

So'z konnotativ ma'nolarining turlari, ularning so'zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarida so'z semantikasiga munosabati kabi qator masalalar tilshunoslikda haligacha uzil-kesil yechilmagan. Bir qator tilshunoslar so'zning konnotativ ma'nosi so'z semantikasi komponentiga kirmaydi, u faqat nutqiy hodisa desalar, boshqa tilshunoslar konnotativ ma'no so'z semantik strukturasi bevosita tarkibiy qismlaridan biri deb qaraydilar.[2,4] Bu chalkash masala sistem tilshunosligining fundamental tushunchalardan biri bo'lmish til va nutqni farqlash, so'zning semantik strukturasi izchillik bilan o'rganish jarayonida to'g'ri hal etilishi mumkin. Rus tilshunoslik fanining keyingi yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda o'zbek tilshunosligida ham til va nutqni farqlash, differentatsiyalash leksik-semantik va grammatik tadqiqot jarayonida izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada S.N.Ivanov, SH.U.Rahmatullayev, O'.G'.Ne'matov, I.Qo'chqorboyev, M.Mirtojiyev va boshqalarning ilmiy ishlarini sanab o'tish kifoya.

So'zning semantik strukturasi o'rganishda ko'pgina tadqiqotchilar ikki xil konnotatsiyani: ingerent konnotatsiya – so'z kontekstdan tashqari olingan holatda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va adgerent konnotatsiya – so'zda ma'lum kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'noni[9,523] qayd qiladilar. Shuning uchun biz ichki ma'no so'z til elementi sifatida o'z paradigmatic qatorida olinganda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va nutqiy (kontekstual) – so'zda ma'lum bir kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'noni izchillik bilan farqlab boramiz. Bu ikki xil konnotatsiyani farqlamasdan turib na so'zning semantik strukturasi o'rganish va na konnotativ ma'noni so'zning semantik strukturasi kirish-kirmasligi masalasini hal qilish mumkin.

Ichki konnotativ ma'no so'z semantikasining tarkibiy qismi bo'la olishi va bo'la olmasligini aniqlash uchun quyidagi misollarni chog'ishtirib ko'ramiz:

Yuz-turq bet-chehra aft-jamol bashara-oraz

O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida bu so'zlarning semantikasi quyidagicha talqin qilingan: *bet* so'zi qo'llanishi bilan *yuz* so'ziga juda yaqin bo'lib, *yuz* so'ziga nisbatan salbiy ottenkasiga ega. *Aft* so'zi *bet* so'ziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. *Bashara* so'zida salbiy ottenkaga *aft* so'zidagiga nisbatan ham kuchli. *Chehra* ijobiy ottenkaga ega. *Jamol* so'zida ijobiy ottenka *chehra* so'zidagiga nisbatan ham kuchli bo'lib, bu so'z asosan poetik uslubga xos. *Jamol* so'zi "husn", "chiroy" ma'nosida ham qo'llanadi. *Oraz* – eskirgan, kitobiy so'z bo'lib hisoblanadi.[10,234]

O'zaro paradigmatic munosabatlarda bo'lgan bu so'zlarning denotativ ma'nosi bitta – odam boshining old tomondan tashqi ko'rinishi. Ammo yuqorida ko'rganimizdek, bu so'zlarning semantik strukturasi har xil. Agar konnotativ ma'no – so'z semantikasi strukturasi kirmaydi, degan taxminga asoslansak, yuqorida sanalgan sakkizta so'z obyektiv borliqda mavjud bo'lgan sakkizta so'z obyektiv borliqda mavjud bo'lgan sakkizta alohida obyektiv ifodalashi va sakkiz xil denotativ ma'noga ega bo'lishi kerak edi. Haqiqatda esa ahvol bunday emas.[11,59]

So'zlovchi bir shaxsga nisbatan, jumladan, uning yuziga nisbatan turli xil munosabat: *yuz* (neytral), *chehra*, *jamol* (ko'tarinki), *aft*, *bashara*, *turq* (salbiy) ifodalanishi mumkin. Ikkinchidan, *yuz* so'zidagi neytral munosabatdan tashqari *jamol*, *chehra* so'zlaridagi ko'tarinki ijobiy munosabat so'zlovchi tomonidan "go'zallik" ottenkasi bilan baholansa, *aft*, *bashara*, *turq* so'zlarida so'zlovchiga nisbatan "xunuk ko'rinish" bilan baholanadi. Ya'ni denotativ ma'no ustiga

qo'shiladigan qo'shimcha ma'nolar kontekstdan, nutqdan tashqarida so'zlarning o'zaro paradigmatic munosabatlaridan anglashilib, o'zbek tilida so'zlovchilar uchun umumiy va majburiydir. Chunki emotsional-ekspressiv bo'yoq o'sha so'z ma'nosi tarkibining bir elementi sifatida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, *chehra*, *jamol* va *aft*, *bashara*, *turq* o'zbek og'zaki nutqida alohida intonatsiyaga egadir. Jumladan, "bashara" so'zini "chehra" so'zidagi kabi ko'tarinki intonatsiya bilan talaffuz etish tinglovchilarning hayratlanishiga emas, ularning qattiq kulgusi yoki anglashilmovchiligiga sabab bo'ladi.

Ingliz tilida *beautiful* sifati va uning sinonimlari tahliliga e'tibor qaratilsa, unda *beautiful* "chiroyli", "ko'rkam" ya'ni dominant so'z hisoblanadi. Ushbu so'zning sinonimlari *attractive*, *pretty* – *beautifulga* nisbatan yuqori, ko'tarinki, ya'ni, stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, ijobiy ma'no ottenkasini ifodalaydi. Shuningdek, *heavenly* "ko'kka ko'tarilgan", "dimog'dor (kalondimog'") sinonimi salbiy ma'no bo'yog'ini ifodalaydi.

Terrible, *dreadful*, *horrible*, *horrid* kabi sinonimik qator tahlil qilinganda, *terrible* neytral so'z, ya'ni dominant, uning sinonimlarida *terriblega* nisbatan kuchli salbiy bo'yoq ifodalanadi. *Terrible* so'ziga nisbatan *horrid* yanada salbiy bo'yoqli, ya'ni qabih, jirkanch kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, leksik jihatdan esa ayrim so'zlar sinonimiyasida kuchaytirish, sevinch kabi qo'shimcha ma'nolar hosil qilinadi. Demak, bu so'zlardagi nafaqat qo'shimcha ma'no, balki ma'lum intonatsion xoslik tilning qonun-qoidalari bilan belgilab berilgan bo'ladi, bular til elementlari bo'lib, tilning ekspressiv funksiyasining so'zdagi in'ikosidir. Bu xildagi qo'shimcha (konnotativ) ma'nolar kontekst bilan bog'liq bo'lganligi, til tomonidan belgilab berilganligi sababli ular so'z semantik strukturasi tarkibiy qismlaridan sanaladi, ya'ni til elementi bo'lib, so'zning semantikasiga kiradi.

Adherent (nutqiy, kontekstual) konnotativ ma'no ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, *temir* so'zi o'z paradigmatic qatorida kimyoviy element, metall qorishmasi sifatida neytral konnotativ ma'noga ega. Ammo quyidagi kontekstda *temir* so'zi metall ma'nosida emas, balki mustahkam irodali, o'z fikridan qaytmaydigan shaxs: *temir odam*, xuddi shuningdek, *oltin qo'llar*, *po'lat iroda*, *arslon yurak*, *quyon yurak* kabi birikmalarda birinchi komponentlarning ma'nosini aniq, konkret tasvirlash mumkin emas. Bu so'zlarda juda katta ekspressivlik (konnotativ ma'no) *temir*, *oltin*, *arslon*, *quyon* so'zlarining o'zida paradigmatic ma'nosida mavjud emas, bu ma'nolar faqat mazkur kontekstdagina ro'yobga chiqadi. Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, adherent (nutqiy, kontekstual) konnotativ ma'no so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan uzviy bog'liqdir.

Demak, til o'zining kommunikativ funksiyasini nominative va ekspressiv funksiyalarining dialektik birligida amalga oshiradi. Ilmiy adabiyotda tilning ekspressiv funksiyasi ikkinchi planga ko'chirilsa, badiiy adabiyotda tilning ekspressiv funksiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'zda esa tilning ham nominativ, ham ekspressiv funksiyasi bilan bog'liq bo'lgan tomonlar – denotativ va konnotativ ma'nolar bor. So'zning denotativ va konnotativ ma'nolarga ega ekanligi – so'z badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri ekanligini belgilab beradi. Agar so'zning konnotativ ma'nosi so'zning semantik strukturasi kirsam, bu so'z, albatta, ma'lum bir sinonimik qatordan o'rin oladi. Yozuvchining badiiy mahorati bu sinonimlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan to'g'ri va mumkin qadar ularning ta'sirchanligini oshirgan holda foydalana olish san'atiga bog'liq bo'ladi. Lekin so'zning badiiy nutqning muhim vositalaridan biriga aylantiruvchi xususiyat uning nutqiy konnotativ ma'noga ega bo'la olishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иванов С.И. Курс турецкой грамматики. Часть 16 Л., 1975, с. 90-91:
2. Нигматов Х.Г. Морфология языка восточнотюрских памятников XI-XII веков. АДД, Баку, 1978, с. 4.
3. Шмелов Д. Проблемы семантического анализа лексики. АДД, М., 1968, с. 22-24.
4. Кодухов В.И. Введение и языкознание. М., 1979, с. 195:
5. Пинхасов Я. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 1969, 46-бет.
6. Потоцкая Н.П. Стилистика современного французского языка. М., 1974 с. 45:
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 1965, 130-бет.
8. Михайлов М.М. Стилистика русской речи. Чебоксары, 1968, с. 34.
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1996, с. 523.
10. Ножиёв А. О'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, 1974, 234-bet.
11. Филиппов А.В. К проблеме лексической коннотации. ВЯ, 1978, №1, с. 59.

MODALLIKNING IFODA VOSITALARI

A.A.Haydarov, prof., f.f.n., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Sh.Sattorova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining rivojlanishi hamda qadimgi va hozirgi ingliz tilidagi modal vositalari orasidagi farqlar haqida fikrlar bayon etilgan. Modallikning ifoda ma'nolari foizlarda statistik yoritilganligi zamonaviy ingliz tili foydalanuvchilari uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: modallik, morfologik usul, sintaktik usul, mantiqiy modallik, infinitiv, leksik usul.

Аннотация. В данной статье обсуждается развитие категории модальности и различия между староанглийскими и новоанглийскими модальными глаголами. Для современных пользователей английского языка полезно, чтобы экспрессивные значения модальности статистически покрывались в процентах.

Ключевые слова: модальность, морфологический метод, синтаксический метод, логическая модальность, инфинитив, лексический метод.

Abstract. This article discusses the development of the modality category and the differences between Old and Modern English modals. It is useful for modern English language users that the expressive meanings of modality are statistically covered in percentages.

Key words: modality, morphological method, syntactic method, logical modality, infinitive, lexical method.

Modallik (lot. modus – chora, usul) – til, fikrlash va mantiqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, so'zlashuvchining nuqtai-nazaridan mazmunning voqelikka munosabati (aloqasi)ni ifodalaydi [1]. Modallik tushunchasi turli tillarda turli xil shakllarda mavjud bo'ladi. Ushbu holat ko'p yillar davomida unga bo'lgan qiziqishni belgilab berdi va uning ko'pgina jihatlarini o'rganish uchun turki bo'ldi. Modallik tushunchasining kengligi va ko'p qirraligi uning hayotimizda naqadar ko'p tomonlama ifodalanishi bilan bog'liq. Insonlar o'z haqarokatlarini rejalashtirganda, taxmin qilganda va uni ma'lum qilganda, buyruq berishda, iltimos qilganda yoki maslahat berganda, istaklarini ifodalaganda, ta'na qilgan vaqtda aynan modallik tushunchasiga aloqador bo'lgan harakatni amalga oshirishadi. U turli harakat, hodisa va faktlarning voqelikka nisbatan aloqasini aks ettiradi: "Harakat yoki hodisalar voqelikda ro'y berishi mumkin; ehtimol bo'lishi mumkin; kimdir harakatni amalga oshirishga majbur qilishi yoki istashi (intilishi) mumkin yoxud harakat boshqa shaxs tomonidan amalga oshirilishini uyushtirishi mumkin (iltimos, buyruq, majburlash, ishontirish, ko'maklashish, to'sqinlik qilmaslik)".

Agar S.A.Kuznetsov tahriri ostidagi rus tilining umumiy lug'atida berilgan "modallik" so'zining izohiga murojaat qilsak, ushbu atamaning mantiqiy va lingvistik ta'riflari bir-biriga juda yaqin, biroq bitta yaqqol farq bilan izohlangan. Mantiqdagi modallik – bu "so'zlayotgan shaxsning ibora mazmuniga munosabatini ifodalovchi tushuncha"; tilshunoslikda modallik – bu "fe'l mayllari shakllari, ohang, kirish so'zlari va shu kabilar orqali so'zlayotgan shaxsning ibora mazmuniga nisbatan munosabatini ifodalovchi grammatik tushuncha" [2]. Modallik tushunchasining maqsadi ham tilshunoslar, ham mantiqshunoslar uchun bir xil, ammo tilshunoslar uchun modal ma'nolarni ifodalovchi til vositalari tarkibi muhimroq hisoblanadi. Mantiqshunoslikdagi modallikning asosiy turlari va tildagi modal tushunchalar turli vaqtlarda turlicha nomlarga ega bo'lgan, ammo har doim atrof voqelikning o'xshash vaziyatlarini aks ettirgan, haqiqiy voqelik, aks ettirilayotgan faktning ishonchliligi va haqiqiylik darajasini qayd etgan. Shu o'rinda, tadqiqotchi P.Portner "modal mantiqning asosiy mohiyatini tushunish modallikni o'rganayotgan tilshunoslar uchun bebaho xislat, chunki modal iboralarning semantikasi haqidagi birinchi nazariy aniq tasavvurlardan ayrimlari modal mantiq doirasida ishlab chiqilgan. An'anaviy modal mantiq til modaligining semantik nazariyasi